

TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYON JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI

SAMARQAND – 2024

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Navoiy viloyati Turizm boshqarmasi

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Turizmni rivojlantirish instituti

Qozon Federal universiteti

Tambov davlat universiteti

L.N.Gumilev nomidagi Evroosiyo milliy universiteti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“TURIZM” KAFEDRASI

“TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYON JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

Konferensiya, O‘zbekiston Respublikasi Perezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135 sonli Qarori ijrosi yuzasidan o‘tkazildi

(2024-yil 25-oktabr)

SAMARQAND-2024

Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsiyon jarayonlardan samarali foydalanish imkoniyatlari. / 2024-yil 25-oktabr. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, SamISI, 2024.-615 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
S.A.Abduhamidov-kafedra mudiri, dotsent
G.R.Tursunova-kafedra dotsenti v.b.
A.Y.Talibova-kafedra o‘qituvchisi

Nashr uchun mas’ullar:
I.S.Tuxliyev-kafedra professori, i.f.d.
R.S.Amriddinova-kafedra dotsenti, i.f.n.
A.P.Maxmudova-kafedra dotsenti, i.f.f.d.
R.Hayitboyev-kafedra dotsenti v.b.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion jarayonlardan samarali foydalanishning nazariy-metodologik masalalari, raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari, uchinchi renessansni shakllantirishda turizmning rivojlanishi: muammolar va yechimlar, raqamli hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari, Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversikatsiya qilish tendensiyalari bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqolalar o‘rin olgan.

Professor-o‘qituvchilar, talabalar, magistrlar, tadqiqotchilar va soha mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

Samarqand viloyatidagi mavjud 156 ta mehmonxonalardan atiga 11 tasidagina bankomatlarning mavjudligi bizdagi turizmning sohasining innovatsion jihatdan ham ancha ortda ekanining yaqqol dalili desak adashmagan bo‘lamiz.



1-rasm. Yurtimizdagi so‘ngi yillardagi YAIM daromadlarining o‘sish ko‘rsatgichlari[27]

Bu samaradorlikni ushlab qolish va uni yanada rivojlantirish turizm sohasining har bir vakili uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

Ma’lumki, har bir sohada yangicha texnologiyalarni qo‘llash turli qiyinchiliklar va moddiy jihatdan muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa insonning harakatlari va qiziqishlarini cheklaydi. Balki shu sababli yurtimizda sun’iy intellekt yaratgan texnalogiyalarni sohalarda qo‘llash bir oz oqsayotgan bo‘lishi mumkin.

Ammo, keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan yurtimizda tadbirkorlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar kundan kun ortib bormoqda. Tadbirkorlar uchun banklardan turli subsidyalar, uzoq muddatli, kam foizlarga mo‘ljallangan kreditlar ajratilmoqda va tadbirkorlar faoliyati davrida turli soliq to‘lovlaridan ozod qilinmoqdalar. Turizm sohasi vakillari bu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda faoliyat yuritishsalar yurtimizda iqtisodiy o‘sish ko‘rsatgichlari turizm sababli yanada oshadi.

Urunbayeva Y.P.-SamISI i.f.f.d, dotsent
Umirzoqova M.I.-SamISI assisenti

MUZEY TURIZMI XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH BO`YICHA FIKR MULOHAZALAR

Bugungi kunda zamonaviy jahon iqtisodiyoti o‘z tarixidagi eng muhim sivilizasion o‘tish davrida bo‘lib, ishlab chiqarishning sanoat turiga asoslangan an’anaviy ijtimoiy tizimdan prisipial jihatdan yangi posindustrial jamiyatga

[27] https://invexi.org/uz/press/the-gdp-of-uzbekistan-for-the-first-quarter-of-2024-grew-by-6-2/

o‘tmoqda. Amerikalik sosiolog va publisist olim D.Bell o‘z tadqiqotlarida o‘tish davrini yoritgan[28]. Tadqiqotchining fikricha, postindustrial jamiyat bu sanoat asosida shakllangan jamiyatning tarixiy turi bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati ishlab chiqarish iqtisodiyotidan xizmatlar ko‘rsatish iqtisodiyotiga o‘tish bilan ifodalanadi. Umuman olganda, postindustrial jamiyatni xizmatlar iqtisodiyoti kabi tavsiflash mumkin. Ya’ni, postindustrial jamiyatning eng muhim xususiyatlaridan biri-bu jamiyatning boshqa soha va tarmoqdarini globalizasion rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratishidir. Buning pirovardida esa muzey turizm xizmatlari sohasi kabi tarmoqlarning rivojlanishiga zamin yaratiladi.

So‘ngi yillarda “muzey turizm” tushunchasi insonlar kundalik hayotida tez tez ishlatiladigan tushunchalardan biriga aylandi va shu bilan bir qatorda, u inson iqtisodiy faoliyatining ajralmas bir bo‘lagi sifatida shakllandi. Insonning turmush darajasini oshirish va sifatini yaxshilash, qulay sharoitlarda hayot kechirish, o‘zining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini to‘la qondirish, bo‘sh vaqtdan unumli foydalanishga bo‘lgan tabiiy intilish jamiyat taraqqiyoti va yuksalishining bosh omili, butun iqtisodiy faoliyat tizimini harakatga keltiruvchi muhim kuch hisoblanadi. Iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhasida bo‘lgani kabi madaniy sohada ham tub burilish yasadi. Jumladan, milliy an’ana hamda qadriyatlarimizni tiklash, boy merosimizni chuqur o‘rganish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etishga katta e’tibor qaratila boshlandi. Hech bir xalq yoki millat ma’naviyatini uning tarixidan, milliy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Binobarin, dunyo tamadduniga beqiyos ulush qo‘shgan ko‘hna zaminimizdagi madaniy hamda tarixiy yodgorliklar, betakror osori-atiqalar, necha ming yillik topilma va ashyolar, nodir qo‘lyozmalar xalqimiz, balki umumjahon merosining noyob namunalari hisoblanadi.

Milliy an’ana hamda qadriyatlarimizni tiklash, boy merosimizni chuqur o‘rganish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etishga katta e’tibor qaratila boshlandi. Milliy ananalarimizni asrab-avaylash va boyitish maqsadida o‘tgan davrda 11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalaar musiqa va sanat maktabi, 5 ta oliygoh, jumladan, yangi avlod jurnalistlarini tayyorlash maqsadida O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi. Shu o‘rinda muhim bir raqamga e’tibor qaratamiz. Madaniyat va sanat sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hajmi 2017 yilga nisbatan 5 karra oshib, 2023 yilda ushbu yo‘nalishlar uchun 712 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi[29]. Hech bir xalq yoki millat ma’naviyatini uning tarixidan, milliy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Binobarin, dunyo tamadduniga beqiyos ulush qo‘shgan ko‘hna zaminimizdagi madaniy hamda tarixiy yodgorliklar, betakror osori-

[28] Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования [Текст] / Д. Белл. – М.: Академия, 2004. – 790 с

[29] Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va maьrifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. “MA’NAVIYAT HAYOTIMIZDA YANGI KUCH, YANGI HARAKATGA AYLANISHI KERAK”Xalk so‘zi 2023 yil 23 dekabr, №274(8617) 2 bet.

atiqalar, necha ming yillik topilma va ashyolar, nodir qo‘lyozmalar nainki xalqimiz, balki umumjahon merosining noyob namunalari hisoblanadi.

O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish ularning xalqning ma’naviy-axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimiz boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o‘rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ‘ib qilish, ulardan xalqimiz ongida milliy g‘urur va iftixor, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytirish yo‘lida keng foydalanish, muzeylarni zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi tajribalarini qo‘llashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov (1998 yil 12 yanvardaPF-1913-son) «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida» Farmon qabul qilgan edi[30].

Farmonda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Badiiy akademiyasi va Davlat matbuot qo‘mitasi mamlakatimiz aholisining muzeyshunoslik madaniyatini oshirish, ularni merosimiz va qadriyatlarimizdan xabardor qilib borish hamda mutaxassislar, muzey xodimlarining muzeyshunoslik sohasidagi ilmiy ishlarini chop etish, bu sohadagi yutuqlarni targ‘ib qilishi muzey xodimlarining kasbiy malakasini oshirish maqsadida uch oyda bir marta o‘zbek, ingliz va rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy, rangli «Moziydan sado» jurnalini ta’sis etish kabi ulug‘vor rejalar ham belgilangan edi. Albatda bu farmon vatanimizda muzeylar faoliyatlarini yuksak darajalarga yetkazishda tarixiy hujjat bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi» hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2017 yil 31 maydagi PQ–3022-son qarorini ijro etish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «2017-2020 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida» qaror qabul qildi[31].

Qarorda davlat muzeylarining ishlab chiqiladigan yangi konsepsiyalari, muzey ashyolarini ishonchli saqlash, tashrif buyuruvchilar, xususan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistlarga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish, arxitektura-rejalashtirish, interyer, dizayn va landshaft yechimlariga e’tibor qaratgan holda har bir muzey binosining eskiz loyihasini

[30] O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning (1998 yil 12 yanvardaPF-1913-son) «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida» gi farmoni

[31] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «2017-2020 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida» gi qarori.

muzeyning yo‘nalishi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda tasdiqlash belgilangan.

Hukumatimizning barcha qarorlariga turizmni rivojlantirish masalalari kiritilganligi milliy turizmda yangi yo‘nalishlarni, turizmning yangi turlarini tashkil qilishni talab qiladi. Ya’ni, muzeyshunoslik zamonaviylikning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolariga yuz tutdi. Yangi muzey konsepsiyasi mualliflari tomonidan esa muzeyda jamoa bilan kommunikatsiyaning yangi usullari joriy etilmoqda. Zamonaviy hayotda muzeylar an’anaviy vazifalar va funksiyalardan biroz chetga chiqib, jamiyat hayotida aktiv ishtirok etishiga ko‘mak beruvchi yanada keng dasturlarni amalga oshirish kerak.

-aholi, eng avvalo, yosh avlod uchun mo‘ljallangan, Internet tarmog‘idan foydalangan holda, muzeylarning faoliyatiga innovasion axborot texnologiyalarni keng joriy etish va muzey eksponatlarining raqamli shakllarini yaratish orqali muzey eksponatlarini ko‘rish imkonini beradigan infratuzilmani yaratish;

-mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosini ommalashtirish va tanitish maqsadida muzeylarning ijtimoiy makonga to‘liq integratsiyalashuvini ta’minlash;

-muzeylarda imkoniyatlari cheklangan shaxslar, keksa yoshdagi tashrif buyuruvchilar, maktabgacha yoshdagi bolalar va ularga hamrohlik qilayotgan shaxslarga xizmat ko‘rsatish va qulaylik yaratishning inklyuziv uslublaridan keng foydalanish;

Mazkur Qaror vatanimizdagi muzeylar faoliyatini taraqqiyotga boshlaydi. Avvalom, taraqqiyotga mamlakatimizning milliy turizmi ham o‘zining samarali ilmiy-amaliy tadqiqotlari va mehnatlarini qo‘shishi lozim. Milliy turizmda muzeylardan foydalanishni tashkil qilish va rivojlantirishga jadal kirishish kerak. Qolaversa, mamlakatimizda so‘ngi yillarda xalqimizning, ayniqsa yosh avlodlarning muzeylarga qiziqishi va tashrif buyurishlari, bu tashriflarni tashkil qiluvchi tashabbuskorlik ham, ayni vaqtda, dunyo xalqlarining, xalqaro turistlarning, vatanimizga tashrif qilgan davlat rahbarlarining muzeylarimizga qiziqishlari ham yildan-yilga kuchayib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va maьrifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. Xalk so‘zi 2023 yil 23 dekabr, №274(8617) 2 bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”-T.: “O`zbekiston” nashriyoti, 2021 464 b.

3. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning (1998 yil 12 yanvardaPF-1913-son) «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida» gi farmoni

4. Bell D. Gryadущyeye postindustrialnoye obщyestvo. Opit sosialnogo prognozirovaniya [Tekst] / D. Bell.-M.: Akademiya, 2004.-790 s